



**TURON FANLAR AKADEMIYASI FAXRIY AKADEMIGI, FALSAFA  
FANLARI DOKTORI, PROFESSOR SHODIYEV RUSTAM  
TOXIROVICHNING 70 YILLIK YUBILEYIGA BAG'ISHLANGAN  
"SHARQ TAFAKKURI VA INSON MUAMMOSI: MA'NAVIYAT, TIL VA  
TARBIYANING FALSAFIY TAMOYILLARI"**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN

**25-IYUN  
2025-YIL**

**SAMARQAND 2025**

компетенции XXI века. Методология играет ключевую роль в преподавании общественных дисциплин. Она обеспечивает не только научную обоснованность знаний, но и формирует мышление, способное к анализу, критике и самостоятельному исследованию. В условиях современного мира, характеризующегося информационной перегрузкой и социальными вызовами, именно методология позволяет сделать обучение осознанным, гибким и ориентированным на развитие личности. Преподавание без методологической основы превращается в передачу фактов, тогда как цель образования — воспитание думающего, ответственного гражданина.

### Список литературы

1. Стёпин В.С. Теоретическое знание. — М.: Прогресс-Традиция, 2000. — 342 с.
2. Мамардашвили М.К. Классический и неклассический идеалы рациональности. — М.: Наука, 1984. — 270 с.
3. Лекторский В.А. Знание и ценности: философско-методологический анализ. — М.: Наука, 1980. — 284 с.
4. Бим-Бад Б.М. Педагогическая энциклопедия. — М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. — 512 с.
5. Зинченко В.П., Мамардашвили М.К. О методологии и методе в науке и образовании // Вопросы философии. — 1991. — №3. — С. 13–25.
6. Брудный А.А. Формирование методологической культуры как цель гуманитарного образования // Проблемы образования. — 2014. — №4. — С. 21–29.

### MIRZO ULUG‘BEK - BUYUK MA‘RIFATPARVAR, ILM-FAN VA MADANIYATNING YETUK HOMIYSI

*Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich,  
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti dotsenti, falsafa doktori (PhD).*

Ma‘lumki, Temuriylarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tadqiq qilish borasidagi ilmiy yo‘nalishlar chet ellarda ham olib borilgan. Nomi Sharq musulmon olamidagina emas, G‘arbdagi xristian dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e‘zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, Shohruh Mirzoning o‘g‘li Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 yy.) dir. Albatta, Mirzo Ulug‘bek buyuk ma‘rifatparvar, ilm-fan va madaniyatning yetuk homiysi bo‘lgan. U qoldirgan

ulkan meros - o'z zamonasidan hozirga qadar Sharqu G'arb ilm ahli tomonidan tadqiqot obyekti sifatida keng ko'lamda o'rganib kelinmoqda.

Mirzo Ulug'bek yoshlik paytlaridanoq qayerda bo'lmasin, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, ulamolar, shayxlar, dunyoga taniqli allomalar davrasida bo'lgan, ilmiy bahslardan ma'naviy bahra olgan, ilhomlangan, ulardan ko'p narsa o'rgangan, asta-sekin aqli teranlashib, fikran boyib, dunyoqarashi kengayib va chuqurlashib borgan.

Bu haqda "Xuddi shu o'rinda abadiyat osmonida Amir Temur yanglig' mangu porlab qolishni istagan shahzodalar ko'p edi. Ammo bobosiga munosib parvoz, avvalo, Mirzo Ulug'bekka nasib etdi. Buyuk munajjim bobosi qilolmagan ishlarni amalga oshirdi. Amir Temur dunyoga jahondorlik etgan bo'lsa, u ilmga jahondorlik qildi" - deb yozadi Maqsud Shayxzoda [2, 46].

Mirzo Ulug'bek Amir Temur vafot etgan paytda 15 yoshda, Movarounahrni boshqarishdek og'ir, murakkab vazifa topshirilganda endigina 19 yoshga to'lgan bo'ladi. Ammo uning podshohligi temuriylar saltanatining saodatli davri sanaladi.

Mirzo Ulug'bek boshqa ko'pgina hukmdorlardan farqli o'laroq, ham davlat arbobi, ham asl olim sifatida faoliyat ko'rsatdi, olimlikni arboblik, arboblikni olimlik bilan qo'shib olib boradi, ilmu-amal yo'lini o'z faoliyatida birlashtiradi. Ulug'bek ham halqni ozod va hur ma'rifatli va madaniyatli ko'rishni xohlar edi. U hammani, ma'rifatli qilish uchun g'amxo'rlik ko'rsatdi va harakat qildi. Ayniqsa, u asosiy moddiy boylik yaratuvchi kuch bo'lgan dehqonlar ularning mehnatini yengillashtirish uchun g'amxo'rlik qilgan.

Ilm-fan taraqqiyoti hamisha uzviylikka, vorisiy davomiylilikda rivojlantirilishga asoslanadi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabi ham o'z faoliyati davomida O'rta Osiyolik mashhur olimlar boshlab bergan ilmiy an'analarga tayanadi. Shunday bo'lsada, Mirzo Ulug'bek akademiyasi olimlari, xususan uning o'zi ham fanni yangi innovatsion fikrlar bilan boyitib, fanda bir qator kashfiyot va ixtirolarga sabab bo'ldi. "Agar Temur va Shoxruhlar shariat qonunlariga berilib o'zlariga madadkor bo'lgan musulmon ruhoniylarining ta'siriga suyangan holda ko'proq diniy muassasalar uchun zarur binolar, ya'ni masjid, maqbara va honaqolar qurdirgan bo'lsalar, Ulug'bek o'z faoliyatida ulardan o'zgacha yo'lni ko'proq madaniy va ilmiy muassasalar qurish, mamlakatga ma'rifat nurini sochish, madaniyatni taraqqiy ettirish, obodonchilik, ma'muriyatchilik va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini tanladi" [4, 78].

Mirzo Ulug'bek hayoti, amaliy faoliyati ilm-fan taraqqiyotiga bag'ishlangan edi. U ilm yordamida kelajakni oldindan ko'rdi. Uning astronomiya va boshqa fanlar *sohasidagi* kashfiyotlari va ilmiy ta'limotlari insoniyatning keyingi ilmiy tafakkuri rivojiga favqulodda muhim zamin tayyorlab berdi. Shu bilan birgalikda O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqdi.

Buyuk Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bekning faoliyatiga eng adolatli tarzda baho bergan mutafakkirdir.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,  
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.  
Oning obnoyi jinsi bo‘ldi barbod,  
Ki davr ahli biridin aylamas yod.

Xaqiqatan ham buyuk bobokolonimiz Mir Alisher Navoiyning ta‘kidlaganidek, Mirzo Ulug‘bekning “Ziji” hozirgi kunimizda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Mirzo Ulug‘bekning “Ziji” dunyo kutubxonalari va shaxsiy kitob yig‘uvchilar orasida eng ko‘p tarqalgan asar bo‘lib, hozirgi kunda bu asarning 150 dan ortiq nushasi ma‘lum.

“Ulug‘bek davrida Samarqanddan tashqari saltanatning ko‘plab boshqa shaharlari - Buxoro, G‘ijduvon, Shaxrisabz, Termiz, Toshkentda ham me‘moriy san‘atning noyob obidalari barpo qilindi” [3, 57]. Mirzo Ulug‘bek fan va madaniyatda, ayniqsa, matematika va astronomiya ilmida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni, ilmning hamma sohalari bo‘yicha o‘ta qobiliyatli va iste‘dodli olimlarning borligini e‘tiborga olib yangi oliy maktab - ilmu tafakkur markazini yaratishga qaror qildi. Ana shu maqsadda qurilgan madrasalar ichida eng muhtashami va mashhuri - Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasidir. 1420 yilda Madrasa ochilgan kuni birinchi bo‘lib ma‘ruzani Mavlono Shamoiddin Muhammad Xavofiy mudarris sifatida o‘qigan. Muhammad Xavofiyning olimlardan 90 kishi ishtirokida o‘qigan ma‘ruzasini o‘ta chuqur ma‘noli, juda murakkab, ilm-fanning barcha sohalarini qamrab olganligi hamda muammoli tarzda bo‘lganligi sababli Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumiyan boshqa hech kim tushunmagan.

Mirzo Ulug‘bek 1424-1428 yillarda Samarqand yaqinidagi Obiraxmat anhuri yonidagi tepalikda rasadxona qurirdi. Olimlarning qoyil qolib aytishlaricha, Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasiga o‘zining jihozi, ilmiy yutuqlari bilan tenglasha oladigan rasadxona jahonda na undan oldin, na undan keyin ham yaratilgan emas. U aholi o‘rtasida “Naqshi jahon” degan nom bilan shuhrat qozongan. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 qo‘zgalmas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvallari tuzilgan. Mirzo Ulug‘bekning astronomik jadvali va uning rahbarligida bino qilingan rasadxona o‘sha davr astronomiya fani yutuqlarining taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. “Ko‘hak tepasida mo‘jazgina va ko‘rkam bir bino bor. Xalq orasida u cho‘ponlarning piri hisoblanuvchi Cho‘pon ota maqbarasi sifatida e‘zozlanadi. Bu yerda chindan ham qandaydir qabrlar topilgan, lekin arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, ular binoning o‘zidan “yoshroq”. Maqbaraning me‘moriy jihatlari tuzilishi,

qurilishi va bezaklari esa XV asrning 30-40 yillariga mansub. Ya'ni, bu inshoot Ulug'bek davrida bunyod etilgan yodgorlikdir" [1, 14].

Mirzo Ulug'bek ta'lim-tarbiya ishlarini yangi pog'onaga ko'tarish uchun taniqli olimlar jalb etdi. Uning bu sohadagi asosiy maqsadi xalqni ma'rifat nuridan bahra olishga erishtirish bo'lgan. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng katta ishlaridan biri madraslarda amalga oshirgan islohotlari edi. Bu islohotlar natijasida madraslarda ilohiy ilmdan tashqari dunyoviy va tabiiy fanlar, riyoziyot, xandasa, ilmi hay'at, tarix, jo'g'rofiya, ilmi oruz, muhandislik, arab tili va uning morfologiyasi, falsafa, mantiq kabi fanlarning o'qitilishiga e'tibor qilingan.

Mirzo Ulug'bekning ta'lim-tarbiya konsepsiyasida "Shogirdlar yuzida o'qituvchini ko'rish" tamoyili ustunlik qilgan. Chunki u o'qituvchini birinchi navbatda ustoz sifatida tushungan bo'lsa, ikkinchi tomondan uni har tomonlama bilimdon, ma'lumotli, keng qirrali bilim sohibi, ensiklopedist olim sifatida bo'lishi ta'kidlangan.

Mirzo Ulug'bekning ilm-fan jonkuyari bo'ganligi, hamda ma'rifatparvarlikdan iborat siyosati tufayli "Samarqand akademiyasi" Sharq xalqlari madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Bu akademiya "Ulug'bekning Samarqand astronomiya maktabi" nomi bilan tarixda qolgan. Fransuz olimi, faylasuf va ma'rifatparvar yozuvchi Volter (1694-1778) Ulug'bekning bu astronomiya maktabini "Ulug'bek akademiyasi"si deb birinchi bo'lib aytgan edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Mirzo Ulug'bek birinchi bo'lib, o'z podsholigi davrida Turonzaminda ilmu-fan natijalari va xulosalarini turmushga, ijtimoiy hayotga tatbiq etish g'oyasini ilgari surgan. Bu esa uning hamma ilmli bo'lishi kerak degan g'oyasiga to'la amal qilganligidan darak beradi. Shu sababli Samarqand madrasasi peshtoqiga yulduzli osmonni, Buxoro madrasasi peshtoqiga "Ilmga intilish har bir musulmon va muslimaning burchidir", deb yozilganligi esa uning o'ta ma'rifatparvar bo'lganligidan, ilm va fan qudratiga uning ijtimoiy kuchiga ishonganligidan darak beradi.

Mirzo Ulug'bek maktabining ilmiy ma'naviy merosi keyingi asrlarda jahonda ko'pgina innovatsion ilmiy kashfiyotlarning amalga oshishiga zamin bo'ldi. Eng muhimi, Ulug'bek akademiyasi Samarqand maktabi sifatida qadimiy va navqiron shahrimizning jahon ilm-fani, madaniyati va ma'naviyatidagi eng yuksak o'rnini belgilab berishga xizmat qildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Путы и страны» Абу-л Касима ибн Хаукаля. Тр. САГУ., вып. XI, Т., 1987.

2. Мақсуд Шайхзода. «Темурхон наслидан», «Мирзо Улуғбек» (тарихий фожиадан қучирмалар). - Тафаккур, №1, 1994.

3. Шишкин В.А. Мазары в занги-ата. В.кн.: В.В.Бартольд, Туркестанские друзья почитатели. Ташкент, 1927.

4. Ўралов А., Сувонкулов И. Алломалар олами. Тошкент: Ўзбекистон, 1991.

## **SUG'D SAVDOGARLARI VA ULARNING XALQARO SAVDODAGI O'RNINI**

*Indiaminova Shoiramriddinova  
Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent  
shoiraminova1986@gmail.com*

Sug'diyona qadimda Markaziy Osiyoning savdo, madaniyat va diplomatiya markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bu hududdan o'tgan Ipak yo'li qadimiy sivilizatsiyalar – Xitoy, Hindiston, Fors, Vizantiya va Arab xalifaligi o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Aynan sug'd savdogarlari ushbu jarayonlarda vositachi sifatida faol ishtirok etib, xalqaro miqyosda o'z izini qoldirgan.

Sug'diylar nafaqat tovarlar almashinuvini, balki madaniy va diniy g'oyalar tarqalishini ham ta'minlagan. Ushbu maqola Sug'd savdogarlari faoliyatini tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ularning xalqaro savdodagi mavqeini yoritadi.

Sug'diyona shaharlarida savdo faoliyati iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida shakllangan. Sug'd savdogarlari, ayniqsa, VI–VIII asrlarda iqtisodiy kuchga ega bo'lgan elita qatlamini tashkil etgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan karvonsaroylar, omborlar va bozor inshootlari bu faoliyatning rivojlanganidan darak beradi [3,28].

Sug'diyona hududi qadimdan savdo-sotiq faoliyati uchun qulay geografik sharoitga ega bo'lgan. U Xitoydan boshlanib Yevropagacha cho'zilgan Ipak yo'lining markaziy nuqtasida joylashgan bo'lib, tabiiy-iqlimiy sharoitlar, sug'oriladigan dehqonchilikning rivoji, hunarmandchilik markazlarining ko'pligi hamda aholi zichligi tufayli Sug'diyona shaharlarida savdo faoliyati iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida shakllangan.

Sug'd savdogarlari, ayniqsa, VI–VIII asrlarda iqtisodiy kuchga ega bo'lgan elita qatlamini tashkil etgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan yirik karvonsaroylar, omborlar, bozorlar, savdo rastalari, shuningdek, yozuvli muhrlar va savdo hujjatlari bu hududda xalqaro darajadagi savdo aloqalari mavjud bo'lganini tasdiqlaydi [4,85].

| Muallif                                                                                | Maqola mavzusi                                                                | Sahifasi   |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>2-SHO‘BA. ILMIY TADQIQOTLAR RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARI</b>               |                                                                               |            |
| <i>Меликова<br/>Мартаба<br/>Нумоновна</i>                                              | РОЛЬ МЕТОДОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ДИСЦИПЛИН                        | <b>88</b>  |
| <i>Tog‘ayev Nodirjon<br/>Ergashevich</i>                                               | MIRZO ULUG‘BEK - BUYUK MA‘RIFATPARVAR, ILM-FAN VA MADANIYATNING YETUK HOMIYSI | <b>90</b>  |
| <i>Indiaminova<br/>Shoira<br/>Amriddinovna</i>                                         | SUG‘D SAVDOGARLARI VA ULARNING XALQARO SAVDODAGI O‘RNI                        | <b>94</b>  |
| <i>Меликова<br/>Мартаба<br/>Нумоновна</i>                                              | МЕТОДОЛОГИЯ НАУКИ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И РОЛЬ В ПОЗНАНИИ                      | <b>98</b>  |
| <i>Yo‘ldoshev Sherzod<br/>Ravshan o‘g‘li</i>                                           | MA‘NAVIYATSHUNOSLIK FANINING RAQAMLI TA‘LIMDAGI TADQIQOT METODOLOGIYASI       | <b>101</b> |
| <i>Akramjonova<br/>Dilnavoz<br/>Davronbek qizi,<br/>Adhamxo‘ja<br/>Isaxo‘ja o‘g‘li</i> | CHO‘LPON: JADIDCHILIK G‘OYALARI VA ADABIY MEROSINING UYG‘UNLIGI               | <b>103</b> |
| <i>Abdullayeva<br/>Dilbarhon<br/>Usmonkhoja qizi,</i>                                  | DEVELOPING LOGICAL THINKING IN YOUTH: A CORNERSTONE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT | <b>108</b> |
| <i>Hakimova<br/>Muyassar<br/>Rashidovna,<br/>Choriyeva Laylo<br/>Abduhakim qizi</i>    | TA‘LIM SIFATINI BAHOLASHNING XALQARO TIZIMI, MOHIYATI VA AHAMIYATI            | <b>119</b> |
| <i>Jangirova Husniya<br/>Ilhom qizi</i>                                                | INGLIZ ADABIYOTIDA BOBUR MIRZO SHAXSI                                         | <b>125</b> |
| <i>Mardiyeva Yulduz<br/>Ubaydullayevna</i>                                             | ABU NASR FOROBIYNING ASARLARIDA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI                     | <b>128</b> |
| <i>Kambarov<br/>Maribjon</i>                                                           | ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUVAQQAT ARXAIZMLAR                                 | <b>132</b> |